SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

TASHPULATOVA SAYFURA BAXODIROVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AVIATSIYA TERMINOLOGIYASINING TARKIBIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

UO‘K: 811.111+811.512.133:81’44

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD)
degree in Philology

Tashpulatova Sayfura Baxodirovna
Ingliz va o‘zbek tillarida aviatsiya terminologiyasining tarkibiy va semantik xususiyatlari tadqiqi 3

Ташпулатова Сайфура Баходировна
Исследование структурных и семантических особенностей авиационной терминологии в английском и узбекском языках 27

Tashpulatova Sayfura Bakhodirovna
Investigation of structural and semantic features of aviation terminology in the English and Uzbek languages 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published work 51

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT KIMYO XALQARO UNIVERSITETI

TASHPULATOVA SAYFURA BAXODIROVNA

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA AVIATSIYA TERMINOLOGIYASINING TARKIBIY VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI TADQIQI

10.00.13 – Qiyosiy va chog‘ishtirma tilshunoslik

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Samarqand – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Fil6860 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent Kimyo xalqaro universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda “Ziyonet” Axborot ta’lim portali www.ziyonet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Oblokulova Mastura Mizrobovna** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Nasrullayeva Nafisa Zafarovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Kalandarov Aybek Ruzimbayevich filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Yetakchi tashkilot:	**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “11” dekabr soat 12 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36; e-mail: info@samdchti.uz.

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (6734 raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 140117, O‘zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko‘chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “20” noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “20” noyabr dagi № 75 raqamli reyestr bayonnomasi).

B.A. Xolikov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O‘.O‘. Qo‘ldoshov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida aviatsiya terminologiyasi inson hayoti va parvozlar xavfsizligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan terminologik tizimlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Aviatsiya sohasida terminlar muayyan tushunchalarni nomlash bilan bir qatorda, kasbiy kommunikatsiya va operatsion qarorlarni qabul qilishning muhim vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois aviatsiya kommunikatsiyasida terminlarning aniq, ixcham va bir ma’noli qo‘llanishi parvozlar xavfsizligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti tomonidan aviatsiya terminologiyasini xalqaro miqyosda tartibga solish va standartlashtirishga alohida e’tibor qaratilayotgan bo‘lsa-da, xalqaro standartlashtirilgan aviatsiya terminologiyasining milliy tillarga o‘girilishi va milliy terminologik tizimlarda me’yorlashtirilishi yagona metodologik asosga to‘liq ega emas. Mazkur holat aviatsiya terminologiyasini tizimli lingvistik tadqiq etish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dunyo tilshunosligida terminologik birliklarni o‘rganish normativ yondashuvdan kommunikativ, funksional va sotsiokognitiv yondashuvlar tomon rivojlanib, bugungi kunda terminlarning real nutqiy qo‘llanishini korpus materiallari asosida tadqiq etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Maxsus til korpuslarining yaratilishi va korpus tahlili vositalarining rivojlanishi terminlarni aniqlash, ularning qo‘llanish chastotasi hamda distributsion xususiyatlarini o‘rganish imkonini bermoqda. Biroq aviatsiya terminologiyasining ingliz tilidan tipologik jihatdan farq qiluvchi agglyutinativ tuzilishga ega o‘zbek tili materialidagi chog‘ishtirma tadqiqi yetarli darajada tizimli yo‘lga qo‘yilmagan. Ingliz va o‘zbek tillarining struktur-tipologik xususiyatlaridagi tafovut aviatsiya terminlarining tarkibiy modellari, so‘z yasalish usullari, semantik tuzilishi va ekvivalentlik darajalarida muayyan farqlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan ingliz va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarini chog‘ishtirma-tipologik aspektda tadqiq etish, ularning struktur-semantik xususiyatlarini aniqlash hamda tarjimada yuzaga keladigan ekvivalentlik masalalarini empirik materiallar asosida belgilash muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda aviatsiya terminologiyasini tadqiq etish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ahamiyatga ega. Mamlakatimizda fuqaro aviatsiyasining rivojlanishi, xalqaro parvozlar geografiyasining kengayishi, aviatsiya infratuzilmasining takomillashuvi hamda milliy aviatsiya ta’limi tizimining shakllanishi soha hujjatlari, o‘quv-metodik materiallar va kasbiy kommunikatsiyani o‘zbek tilida olib borish ehtiyojini kuchaytirmoqda. O‘zbekiston Respublikasining Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotiga a’zo davlat sifatida faoliyat yuritishi ingliz tili bilan bir qatorda o‘zbek tilidagi aviatsiya terminologiyasini tizimlashtirish va me’yorlashtirishni taqozo etadi. Milliy aviatsiya terminologiyasida ayrim terminlarning parallel va ko‘p variantli qo‘llanishi soha terminologiyasini tartibga solish hamda yagona me’yoriy asosda shakllantirish zaruratini ko‘rsatmoqda. Binobarin, “…O‘zbek tilida soha terminlari lug‘atlarini tayyorlash va chop etish ishlari ...hamda sohalar bo‘yicha ilmiy asoslarni, atamalarni

iste’molga kiritish, zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish...” kabi vazifalarning belgilanganligi aviatsiya terminologiyasini ilmiy asosda tadqiq etish, tizimlashtirish va uning o‘zbekcha muqobillarini me’yorlashtirishning dolzarbligini yanada oshirmoqda.[1] Shu bois ingliz va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarini struktur, semantik va funksional jihatdan tavsiflash, ularning o‘zaro ekvivalentlik xususiyatlarini aniqlash, terminlarning tarjimada ifodalanish usullarini belgilash hamda milliy aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishga xizmat qiluvchi ilmiy asoslarni ishlab chiqish zarurati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, hamda mazkur faoliyatga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida terminologiya nazariyasining asoslari G.O.Vinokur, D.S.Lotte, A.A.Reformatskiy, O.S.Axmanova, V.P.Danilenko, A.V.Superanskaya, V.M.Leychik, T.L.Kandelaki, S.V.Rojdestvenskaya, S.Hubackova, I.Semradova, K.Bahadır, S.Wu ishlarida yaratilib, ularda termin tushunchasining mohiyati, terminologik tizimlarni tavsiflash tamoyillari hamda terminlarning semantik motivatsiyasi masalalari ishlab chiqilgan. Bevosita aviatsiya terminologiyasi xorijiy tilshunoslikda bir asrdan ortiq vaqt davomida tadqiq etib kelinmoqda: soha leksikasining dastlabki leksikografik qayd etilishi A.Shlomanning 1910-yilda nashr etilgan olti tilli texnik lug‘atiga borib taqaladi, I.V.Arnold aviatsiya-texnik leksikologiyasining nazariy asoslarini yaratgan, L.B.Tkacheva terminlarning kelib chiqishi va yasalish yo‘llarini, I.V.Asmukovich esa ularning shakllanish hamda rivojlanish bosqichlarini aniqlagan[2].

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabridagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” . https://lex.uz. (murojat sanasi: 2026-yil 10-yanvar)

[2] Hubackova S., Semradova I. On Acquiring New Vocabulary of a Professional Text // Procedia: Social and Behavioral Sciences. – 2012. – Vol. 47. – P. 382–386; Bahadır K. Mesleklerin Tanımlanması ve Sınıflandırılması Üzerine Bir Değerlendirme // Journal of Turkish Studies. – 2018. – Vol. 13, Issue 19. – P. 1219–1233; Woo S. Factors associated with the perception of parents and children regarding obesity-related terminology used by healthcare professionals in a sample of Korean children and adolescents with obesity // Obesity Research & Clinical Practice. – 2022. – Vol. 16, Issue 5. – P. 421–428; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 3–54; Лотте Д.С.

O‘zbek tilshunosligida terminologiyani tadqiq etishning ilmiy asoslari XX asrning 50–60-yillarida yaratilgan bo‘lib, S.Ibrohimov kasb-hunar leksikasini, S.Usmonov terminologiyaning nazariy masalalarini o‘rgangan, R.Doniyorov esa o‘zbek tili texnik terminologiyasini yaxlit tizim sifatida tadqiq etgan. Terminologik tizimlarni me’yorlashtirish masalasi A.Madvaliyev, X.Dadaboyev, X.Shamsiddinov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida yoritilgan. Keyingi yillarda sohaviy terminologiyani chog‘ishtirma o‘rganish mustaqil yo‘nalish sifatida shakllandi:Z.O.Tursunova, P.P.Nishonov, O.S.Axmedov, kabi tadqiqotchilar turli sohalar terminologiyasining lingvistik tahlili, terminografiya hamda terminlarni o‘girish masalalariga bag‘ishlangan ishlarni amalga oshirdilar[3].

O‘zbek tilshunosligida bevosita aviatsiya terminologiyasiga oid izlanishlar ham amalga oshirilgan. Ularning dastlabki amaliy natijasi sifatida 1978-yilda P.Shvets va I.M.Sharifboyevning “Aviatsiya texnikasidan ruscha-o‘zbekcha qisqacha izohli lug‘ati” nashr etilgan. S.X.Nurmatova ingliz, rus va o‘zbek tillari leksikasida astro-aviakosmik terminologiyaning shakllanish manbalarini tadqiq etgan, soha terminologiyasining monografik tadqiqi esa R.T.Ergashovaning “Ingliz, rus, o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarining lingvistik xususiyatlari” mavzusidagi doktorlik (DSc) dissertatsiyasida amalga oshirilgan. So‘nggi yillarda N.S.Abdulvohidova ingliz tilidagi aviatsiya terminlarining leksik xususiyatlarini, X.Jo‘raboyeva ingliz va o‘zbek aviatsiya terminologiyasining lingvistik jihatlarini, M.Xadjayeva aviatsiya terminlarini o‘girish masalasini, N.A.Ayaqulov esa aviatsiya terminal tizimlari leksikasini tahlil qilgan[4]. Mavjud tadqiqotlarda aviatsiya

---

Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 158 с.; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968. – 344 с.; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1968. – С. 45–57; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 346 с.; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 346 с.; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 4-е изд. – М.: Либроком, 2009. – 256 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.; Рождественская С.В. Структурно-семантическая организация керамической терминологии в английском и русском языках*:* дис. канд. филол. наук. – Пятигорск, 2009. – 186 с.

[3] Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I – жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956. – 144 б; Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – 148 б; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 148 б; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 60 с; Дадабоев Х. Военная лексика в старо узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 62 с; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 148 с; Нишонов П. Француз ва ўзбек тилларида дипломатик соҳа лексикасининг шаклланиши // Ўзбекистонда хорижий тиллар. – 2021. – № 6 (41). – Б. 69–84; Ахмедов О.С. Инглиз ва ўзбек тилларида солиқ-божхона терминларининг лингвистик таҳлили ва таржима муаммолари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Тошкент, 2016. – 238 б;

[4] Швец Ф.П., Шарифбоев И.М. Авиация техникасидан русча-ўзбекча қисқача изоҳли луғат = Русско-узбекский краткий толковый словарь по авиационной технике: ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 111 б; Нурматова С.Х. Истоки формирования и функционирование астроавиакосмической терминологии в лексике английского, русского и узбекского языков: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 2000. – 24 с; Эргашова Р.Т. Инглиз, рус, ўзбек тилларидаги авиация терминларининг лингвистик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри (DSc) дисс. – Қарши, 2026. – 270 б; N.S.Abdulvohidova. Ingliz tilida aviatsiyaga oid terminlarning leksik xususiyatlari // Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2, 5-son. – B. 623–625; X. Jo‘raboyeva. Linguistic Features of Aviation Terminology in Uzbek and English Languages // Journal of New Century Innovations. – 2023. – Vol. 4, № 2. – P. 168–174. M. Xadjayeva. Structural Semantic Features in Translation of Aviation Terms // Journal of Foreign Languages and Linguistics. – 2022. – Vol. 4, № 6. – P. 32–38; N.A. Ayaqulov. Analysis of

terminologiyasi tarixiy-etimologik, leksik-semantik, struktur-derivatsion, stilistik va sotsiolingvistik jihatlardan o‘rganilgan bo‘lsa-da, ingliz va o‘zbek aviatsiya terminlari o‘rtasidagi muvofiqlik asosan sifat tavsifi darajasida yoritilgan. Xususan, ICAO normativ hujjatlari asosida stratifikatsiyalangan tarzda shakllantirilgan korpusda terminologik ekvivalentlik darajalarini aniqlash, ularning miqdoriy taqsimotini belgilash hamda ushbu ko‘rsatkichlarni terminologik qarorlar uchun mezon sifatida qo‘llash maxsus tadqiqot predmeti bo‘lmagan. Mazkur dissertatsiya aynan shu jihati bilan farqlanadi va bu holat tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida aviatsiya terminologiyasining normativ-operatsion asoslarini hamda tarkibiy va semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma-tipologik jihatdan tizimli tahlil qilish, terminologik ekvivalentlikning empirik asoslangan darajalarini aniqlash hamda o‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishning integrativ ilmiy modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

aviatsiya terminologiyasining nazariy-metodologik asoslarini, shuningdek, ICAO va ISO hujjatlarining aviatsiya terminologiyasi shakllanishi va me’yorlashuviga ta’sirini tadqiq etish;

ingliz va o‘zbek aviatsiya terminlarining tarkibiy modellari va semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma-tipologik tahlil qilish, strukturaviy tafovutlarni keltirib chiqaruvchi lingvistik mexanizmlarni aniqlash;

ICAO hujjatlari asosidagi korpus materialida terminologik ekvivalentlik darajalarini va ularning miqdoriy taqsimotini aniqlash, muqobillashtirish strategiyalarining lingvistik shartlarini asoslash;

o‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishning konseptual, lingvistik va normativ qatlamlarni birlashtiruvchi integrativ modelini ishlab chiqish va uni sinovdan o‘tkazish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ICAO normativ va ISO terminologik standartlari tomonidan tartibga solingan, ingliz va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlari tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek aviatsiya terminologiyasining tarkibiy va semantik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tavsifiy, strukturaviy, semantik, komponent, definitsion, chog‘ishtirma-tipologik va lingvostatistik tahlil usullaridan

Linguistic and Translation Aspects in Aviation Terminal Systems // Proceedings of International Educators Conference. – 2024. – P. 45–52.

foydalanilib, empirik material stratifikatsiyalangan tanlov asosida shakllantirildi hamda terminlarning tarkibiy ko‘rsatkichlari komponent tahlili orqali aniqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

aviatsiya terminologiyasining nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirilib, ICAO va ISO hujjatlarining aviatsiya terminologiyasi shakllanishi va me’yorlashuvidagi o‘rni hamda ta’siri qiyosiy tahlil asosida aniqlangan;

ingliz va o‘zbek aviatsiya terminlaridagi strukturaviy-tipologik tafovutlar analitik va agglyutinativ tuzilma farqi bilan izohlanib, o‘zbek terminlarining o‘rtacha 0,342 komponentga kengayishi hamda semantik tuzilishning uch qatlamliligi dalillangan;

terminologik ekvivalentlikni komponent moslik mezoni orqali operatsionallashtirish usuli ishlab chiqilib, 500 birlikli korpusda to‘liq, qisman va nol ekvivalentlik ajratilgan hamda muqobillashtirish strategiyalarining lingvistik shartlari isbotlangan;

o‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishning konseptual, lingvistik va normativ qatlamlardan iborat uch qatlamli integrativ modeli ishlab chiqilib, samaradorligi 30 ta termin mikrotahlilida tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

aviatsiya terminlari bo‘yicha to‘plangan materiallar, muammolar, xulosalar, ingliz va o‘zbek tili terminologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda asos bo‘lib xizmat qilishi isbotlangan;

aviatsiya terminlari bo‘yicha izohli, imlo lug‘atlari yaratilishida material va manba sifatida xizmat qilishi hamda bunday tipdagi lug‘atlar yaratish usullari ishlab chiqilgan;

ingliz va o‘zbek tilida aviatsiya terminlarinig amalda ma’lum me’yorlar asosida qo‘llanishi yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo‘llanilgan tadqiqot usullarining asosliligi, qo‘yilgan muammoning aniqligi, ilmiy-nazariy tahlillarning dalillanganligi, terminlar ma’nolari aniq manbalarga tayanib izohlanganligi, keltirilgan tahlillar tavsifiy, leksik-semantik, chog‘ishtirma-tipologik va lingvostatistik tahlil metodlari vositasida asoslangani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ingliz va o‘zbek tillaridagi aviatsiya terminlarining strukturaviy, semantik va terminologik xususiyatlarini chog‘ishtirma o‘rganish asosida terminologik ekvivalentlikni baholashning komponent mosligi mezoniga asoslangan yondashuv ishlab chiqildi. Mazkur yondashuv asosida terminlar to‘liq, qisman va nol ekvivalentlik darajalariga ajratilib, ularning strukturaviy va semantik moslik mezonlari belgilandi. Aniqlangan ekvivalentlik darajalari ingliz va o‘zbek tillarining tipologik xususiyatlari hamda aviatsiya terminlarini muqobillashtirish usullarini nazariy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa olingan natijalardan, terminlarni qiyoslash va semantik tahlili natijalaridan “Leksikologiya”, “O‘zbek tili terminologiyasi”, “O‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi” “Qiyosiy tilshunoslik”,

“Lingvistik tahlil metodlari” kabi o‘quv kurslari mazmunini boyitishda foydali material bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida aviatsiya terminologiyasining tarkibiy va semantik xususiyatlari tadqiqi qilish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

aviatsiya terminologiyasining nazariy-metodologik asoslari tizimlashtirilib, dasturiy tizimga integratsiya qilingan qarashlaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024 -yillarda amalga oshirilgan № IL-402104209 raqamli “Axborot-qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” mavzusidagi innovatsion grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yilning 8-apreldagi 01-1862-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining raqamli resurslarini rivojlantirish, sun’iy intellekt va avtomatik tarjima tizimlari samaradorligini oshirish hamda milliy tilning global axborot makonidagi raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qilgan;

ingliz va o‘zbek aviatsiya terminlari asosida shakllantirilgan 500 birlikdan iborat aviatsiya terminlari bazasi qiyosiy aspektda o‘rganilib, terminologik ma’lumotlar bazasini kengaytirishga xizmat qilgan o‘rinlardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan AM-Ф3-201908172 raqamli “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish mavzusi” (2020-2023) mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2026-yilning 1-apreldagi 01-17 10-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tilining ta’limiy korpusini boyitish, sohaviy terminologiyani tizimlashtirish hamda lingvistik tadqiqotlar uchun zarur bo‘lgan raqamli resurslarni rivojlantirishga imkon bo‘lgan;

terminologik ekvivalentlikni komponent moslik mezoni orqali operatsionallashtirishga oid ilmiy natijalar hamda terminlarni tarjima qilish strategiyalari loyiha doirasida tashkil etilgan o‘quv mashg‘ulotlari, seminarlar va treninglar mazmuniga integratsiya qilingan xulosalaridan Qarshi davlat universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan SUZ-800-21-GR-3181 “Reinforcing English Language competence at Karshi State University” nomli xalqaro grant loyihasida foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2026-yil 11-apreldagi 04/3427-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ishlanmalar ingliz tilini kasbiy maqsadlarda o‘qitish (ESP) hamda tarjima ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan darslar samaradorligini oshirish bilan belgilangan xulosalar loyiha ishini boyitishiga xizmat qilgan;

o‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishga bag‘ishlangan materiallardan O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasi “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Adabiy jarayon”, “Jahon adabiyoti” va “Ta‘lim va taraqqiyot” nomli dasturlarning ssenariylarini tayyorlashda manba sifatida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston-24” ijodiy birlashmasining 2026-yil 15-apreldagi 05-09-720-son ma’lumotnomasi). Natijada tinglovchilarning aviatsiya

terminlarining o‘zbek tilidagi muqobillarini to‘g‘ri qo‘llanish tamoyillari va terminologik standartlashtirish masalalari borasidagi fikrlari yanada boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan iborat bo‘lib, asosiy matni 126 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Aviatsiya sohasiga doir terminologiyaning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlanib, uch bo‘limdan tashkil topgan. Bobning birinchi bo‘limida *“Terminologiya tushunchasi, uning ilmiy ta’rifi va kommunikativ funksiyalari”* haqida ma’lumotlar berilgan. Mazkur bo‘limda termin va uning ahamiyati, terminologiyaning fan sifatida shakllanish bosqichlarihaqida atroflicha ma’lumotlar berilgan. Terminologiya fanining tarixiga nazar tashlasak, u dastlab leksikografiya va lug‘atshunoslikdan kelib chiqqanini ko‘ramiz. O‘rta asrlarda ilmiy bilimlar tarqalishi bilan ixtisoslashgan leksikalar tuzilgan, unda turli sohalardagi maxsus so‘zlar izohlangan. XVIII asrda ilmiy leksikografiya rivojlanishi bilan birga terminlarni tizimli o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. XIX asrda esa falsafa, tabiiy fanlar va texnikaning jadal rivojlanishi yangi tushunchalar va ularning nomlarini tartibga solishni talab qildi. Biroq terminologiya mustaqil ilmiy fan sifatida faqat XX asrning birinchi yarmida E. Vuster va D.S. Lotte kabi olimlarning ishlari orqali shakllandi[5]. Ushbu tarixiy jarayon terminologiyaning amaliy ehtiyojlardan kelib chiqib, nazariy tizimga aylangan fanligini ko‘rsatadi. O‘zbek terminshunosligi sohasida ham mustaqillik yillarida muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. H.Dadaboyev terminologik tizimda barqarorlik va me’yorlashuvning ilmiy-amaliy kommunikatsiya uchun zarurligini ta’kidlab, terminologiyani fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq rivojlanuvchi tizim sifatida izohlaydi[6]. Uning fikricha, terminologik tizimda variantlilik va dublet birliklarning nazoratsiz ko‘payishi ilmiy va amaliy muloqotda nomuvofiqliklarni

[5] Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – XIII, 145; 70 S.Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 158 с.

[6] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, 2019. – B. 7-23.

yuzaga keltiradi hamda soha mutaxassislari orasida kommunikativ buzilishlarga sabab bo‘ladi. H. Jamolxonov esa terminning asosiy belgisi sifatida uning aniq tushuncha chegarasiga ega bo‘lishini ko‘rsatib, terminologik me’yorlash jarayonida definitsion aniqlik hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etadi[7]. Shuningdek, milliy terminologiyaning xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashuvi zaruriy shart sifatida e’tirof etiladi. Terminologiya va leksikologiya o‘rtasidagi munosabat masalasi alohida diqqatga sazovordir.

Aviatsiya kommunikatsiyasi real vaqt rejimidagi tezkor diskurs bo‘lib, bu jarayonda terminlarning aniqligi hamda ikki ma’nolilikdan holi bo‘lishi bevosita operatsion xavfsizlikka ta’sir ko‘rsatadi. ICAO va aviatsion psixolingvistika tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, havo hodisalarining aksariyati inson omili ta’sirida yuz beradi va kommunikatsiya buzilishi ushbu omilning muhim tarkibiy qismidir; bunda terminologik noaniqlik va noto‘g‘ri talqin operatsional xatolarning asosiy manbalaridan biri sifatida belgilanadi[8]. Eng mashhur misollardan biri 1977-yilgi Tenerife fojiasi bo‘lib, unda ikkita Boeing 747 to‘qnashgan va 583 kishi halok bo‘lgan. Tergov natijasida aloqa xatosi va terminologik noaniqlik aniqrog‘i, *we are now at takeoff* iborasining noaniq talqin qilinishi falokatga olib kelganligini aniqlagan[9]. Bu voqea aviatsiya terminologiyasini standartlashtirishning nafaqat ilmiy, balki hayotiy zarurat ekanini tasdiqladi.

Mazkur tadqiqot doirasida aviatsiya termini quyidagicha ta’riflanadi: aviatsiya termini aviatsiya diskursida konseptual tizimga bog‘langan, xalqaro standartlar tomonidan me’yorlashtiriladigan hamda real vaqt rejimidagi professional muloqotda kommunikativ aniqlik va operatsion xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi maxsus nominativ birlik. Ushbu ta’rif terminning nafaqat normativ shaklini, balki uning real qo‘llanish kontekstini va ingliz o‘zbek tarjima muqobilligini ham metodologik jihatdan qamrab oladi. Bu ta’rif Cabréning tripartite modeli (til-bilim-jamiyat) va Wüsterning normativlik tamoyilini sintezlaydi.

Birinchi bobning ikkinchi bo‘limi *“Aviatsion terminlarning shakllanishi va rivojlanishi”* masalalariga bag‘ishlangan. Aviatsiya terminologiyasi shakllanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning tarkibiy tuzilishi hamda leksik-semantik bazasi tilning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda ekstralingvistik omillar ta’sirida shakllangan. Aviatsiya avvalo texnik soha bo‘lib, unda yangi qurilmalar, jarayonlar va muhandislik yechimlari paydo bo‘lishi bilan parallel ravishda yangi terminlar yuzaga keladi. Terminologiyada bunday jarayon nominatsion ehtiyoj sifatida izohlanadi: yangi obyekt yoki hodisa paydo bo‘lganda uni nomlash uchun tilning ichki imkoniyatlari ishga tushadi. Aviatsiya taraqqiyoti tarixida bu jarayon juda kuchli bo‘lib, samolyot qismlari, aerodinamik jarayonlar, dvigatel texnologiyasi va avionika tizimlari rivojlangan sari terminlar majmui ham kengayib borgan.

Termin yaratishning asosiy mexanizmlari aviatsiya sohasida turli ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. So‘z yasash jarayonida (*de-icing, taxiing, pressurization, airworthiness*) harakat, holat yoki xususiyat ifodalanadi. Ushbu

[7] Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b.
[8] ICAO. Doc 9859: Safety Management Manual. – 4th ed. – Montréal: ICAO, 2018-182 p;
[9] ICAO. Aircraft Accident Report: KLM 4805 / Pan Am 1736, Tenerife, 27 March 1977. – Madrid, 1978; Cushing S. Fatal Words: Communication Clashes and Aircraft Crashes. – Chicago: University of Chicago Press, 1994. – 162 p.

terminlar koʻpincha fe’l asoslariga *-ing* yoki *-ness* qoʻshimchalarini qoʻshish orqali hosil qilinadi. Kompozitsiya orqali (*flight deck, fuel tank, runway lighting, instrument landing system*) murakkab tushunchalar ifodalanadi va bu usul aviatsiya terminologiyasida eng samarali termin yaratish mexanizmi sifatida qaraladi. Qisqartmalar va akronimlar (*ATC, AIP, NOTAM, ILS, VOR, GNSS, ADS-B*) muloqot tezkorligi uchun zarur ixcham modelni taqdim etadi. Hozirda aviatsiyada ishlatiladigan akronimlar soni 5000 dan oshadi. Semantik kengayish orqali esa mavjud soʻzlarga yangi kasbiy ma’no yuklatiladi.

Ingliz tilining aviatsiyada dominantligi tarixiy jarayon natijasida shakllangan. Ikkinchi jahon urushi tugagach, AQSh aviatsiya sanoatida yetakchi oʻrinni egalladi, “Boeing”, “McDonnell Douglas”, “Pratt & Whitney” kabi kompaniyalar dunyo aviatsiyasini inglizcha texnik hujjatlar va terminologiya bilan ta’minlay boshladi. Bir vaqtning oʻzida inglizcha ilmiy nashrlar, ICAO hujjatlari va ta’lim dasturlari ingliz tilini aviatsiyada yagona xalqaro tilga aylantirdi. Hozir dunyodagi aviatsiya oliy ta’lim muassasalarining aksariyati ingliz tilida ta’lim beradi, xalqaro sertifikatlash imtihonlari ham ingliz tilida oʻtkaziladi. Oʻzbekiston aviatsiya mutaxassislari uchun bu holat ingliz tili va aviatsiya terminologiyasini bir vaqtda oʻrganish zarurligini anglatadi bu esa ta’lim jarayoniga qoʻshimcha talablar qoʻyadi.

Oʻzbek aviatsiya terminologiyasining shakllanishida til kontaktlari muhim rol oʻynagan. Mustaqillikdan oldingi davrda koʻplab aviatsiya terminlari avval rus tili vositasida oʻzbek tiliga kirgan: *dispatcher диспетчер dispetcher, aerodrome аэродром aerodrome, crew экипаж ekipaj*. Mustaqillik yillarida esa ingliz tiliga asoslangan xalqaro terminologiya bevosita oʻzlashtirilmoqda. Bu ikki qatlamli oʻzlashtirish jarayoni oʻzbek aviatsiya leksikasida terminologik dubletlilik va variantlilik muammosini yuzaga keltirgan: bir xil tushuncha uchun rus tilidan kirib kelgan va ingliz tilidan kirib kelgan ikkita shaklning parallel qoʻllanilishi kuzatilmoqda.

Birinchi bobning uchinchi boʻlimi “*Aviatsiya terminologiyasining normativ-huquqiy asoslari va xalqaro standartlashuv tizimi*” deb nomlanadi. Xalqaro aviatsiya huquqi tizimida terminologiyaning oʻrni beqiyosdir. 1944-yilgi Chikago Konventsiyasi va unga ilova qilingan 19 ta ICAO Annex xalqaro fuqaro aviatsiyasining butun normativ asosini tashkil etadi. 193 ta davlat ushbu konventsiyaga a’zo boʻlib, ICAO standartlari ular uchun majburiy xarakter kasb etadi. Ushbu hujjatlarda terminlar ikki darajada tartibga solinadi: terminologik ta’riflar boʻlimi, unda asosiy tushunchalar aniq belgilanadi va operatsional kontekst, bunda terminlar protsedura va me’yoriy talablar bilan birgalikda qoʻllaniladi. J.C. Sager terminologiyani institutsional va huquqiy mexanizmlar orqali boshqariladigan faoliyat turi sifatida ta’riflaydi[10]. Aviatsiya sohasida bu ta’rif toʻliq amalga oshirilgan: ICAO terminologik regulyator sifatida terminlarni nafaqat tavsiflab beradi, balki ularning qoʻllanishini majburiy tartibda belgilaydi. ICAO hujjatlarida terminlar uch toifali tizimda berilgan: birinchi darajada SARPs (Standards and Recommended Practices) doirasidagi Standartlar (majburiy qoidalar) va Tavsiya etilgan amaliyotlar, ikkinchi darajada PANS (Procedures for Air Navigation

[10] Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 1990. – P. 71–80.

Services Doc 4444, Doc 8168 kabi aviatsion xizmatlar protseduralari), uchinchi darajada Guidance Material (ko‘rsatma materiallar va qo‘llanmalar). Bu uchala darajada ham terminologik aniqlik bir xil darajada talab qilinadi.

O‘zbekistonda aviatsiya terminologiyasini tartibga soluvchi milliy normativ baza hali to‘liq shakllanmagan. Asosiy hujjatlar sifatida “Fuqaro aviatsiyasi to‘g‘risida”gi qonun hamda Aviatsion qoidalar to‘plami mavjud. Biroq ushbu hujjatlarda terminologik izchillik yetarli darajada ta’minlanmagan: ayrim hollarda inglizcha terminlar bevosita qo‘llanadi, boshqa hollarda esa ularning o‘zbekcha tarjimalari ishlatiladi. Bunday nomuvofiqlik nafaqat uslubiy kamchilik, balki amaliy muammo ham hisoblanadi. Chunki bir xil tushunchaning turli hujjatlarda turlicha nomlanishi xavfsizlikka oid xatolar va risklarning ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli aviatsiya terminologiyasini yagona tizimga keltirish va milliy normativ hujjatlarni terminologik jihatdan standartlashtirish ushbu sohani tadqiq etishning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro aviatsiya terminologiyasining normativ bazasi asosan ICAO hujjatlari orqali shakllanadi. ICAO hujjatlari terminologiyani nafaqat tavsiflovchi, balki ularning majburiy qo‘llanish doirasini belgilovchi huquqiy manba sifatida ham xizmat qiladi. Terminologiya nazariyasi nuqtai nazaridan bu Wüsterning normativ modeli bilan to‘liq mos keladi: termin bu tushunchaning yagona belgilanishi bo‘lib, u me’yoriy hujjatlar orqali mustahkamlanadi.

Jadval-1

ICAO normativ hujjatlarining terminologik bazasi

Normativ hujjat	***Qamrab olgan soha***	***Terminologik ahamiyati***
ICAO Annex 1	Personnel Licensing	Uchuvchilar va mutaxassislar faoliyatiga oid terminlar
ICAO Annex 2	Rules of the Air	Parvoz qoidalari terminlari
ICAO Annex 10	Aeronautical Telecommunications	Radioaloqa terminlari va frazeologiya
ICAO Annex 11	Air Traffic Services	ATC va dispetcherlik terminlari
ICAO Doc 4444 (PANS-ATM)	Air Traffic Management	Protsedural terminlar va buyruqlar
ICAO Doc 9432	Radiotelephony Manual	Standart iboralar va signal so‘zlar

1-jadvaldan ko‘rinadiki, ICAO hujjatlarida terminologiya alohida lug‘at sifatida emas, balki operatsional protsedura tarkibida beriladi. Bu holat aviatsiya terminologiyasining o‘ziga xos xususiyatini ko‘rsatadi: terminlar real operatsional faoliyat bilan bevosita bog‘langan. Har bir ICAO Annex o‘z terminologik bo‘limiga ega bo‘lib, unda o‘sha Annex doirasida qo‘llaniladigan terminlarning ta’riflari keltiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Aviatsiya terminlarining tarkibiy-semantik xususiyatlari va qo‘llanish sohalari”** deb nomlanib, bu bob ham uch bo‘limdan tarkib topgaan. Bobning birinchi bo‘limi “*Aviatsiya terminlarining tarkibiy modellari: bir komponentli va ko‘p komponentli birliklar”* deb nomlanadi. Terminologik tadqiqotlarda terminlarning tarkibiy tuzilishini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon terminlarning qanday shakllanishi, ma’nosining aniqligi

va qo‘llanishdagi barqarorligini aniqlashga yordam beradi. Terminning sodda yoki murakkab tuzilishi uning kasbiy nutqda samarali qo‘llanishi, tez tushunilishi va me’yoriy maqomiga ta’sir qiladi. Shu sababli terminlarning tarkibiy modellari terminologiya nazariyasida muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Terminlarning tarkibiy tahlilida yana bir muhim aspekt termin yasash (term formation) jarayonidir. Terminologiya nazariyasida termin yasashning quyidagi usullari farqlanadi: kompozitsiya (ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning birikishi), derivatsiya (so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida yangi so‘z hosil qilish), konversiya (so‘z turkumining o‘zgarishi), qisqartirish (abbreviation va akronim) va semantik kengayish (mavjud so‘zga yangi ma’no yuklash). Aviatsiya terminologiyasida ushbu usullarning barchasi qo‘llaniladi, biroq eng samarali usul kompozitsiya va qisqartirish. Ingliz tilidagi aviatsiya terminologiyasining aksariyat qismi kompozit (ko‘p komponentli) tuzilishga ega bo‘lib, akronim va qisqartmalar sezilarli ulushni tashkil etadi[11]. O‘zbek tilidagi aviatsiya terminlarida esa derivatsiya (otlash, fe’lning *-ish* shaklida qo‘llanishi) ham muhim o‘rin tutadi.

O‘zbek terminshunosligida ham terminlarning tarkibiy tuzilishi masalasi muhim ilmiy muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. H. Dadaboyev terminologik tizimda ko‘p komponentli terminlarning me’yoriy boshqaruvsiz ko‘payishi variantlilik va barqarorlik muammolarini yuzaga keltirishini ta’kidlaydi. H. Jamolxonov esa terminlarning tarkibiy aniqligi ularning tushunchaviy chegarasi bilan bevosita bog‘liq ekanini ko‘rsatib, struktur tahlil termin semantikasini aniqlashning muhim vositasi ekanini qayd etadi[12]. Bu metodologik yondashuv ko‘p komponentli aviatsiya terminlarining tuzilish qonuniyatlarini o‘rganishda ham qo‘llash mumkin.

Ingliz tilidagi bir komponentli aviatsiya terminlari uchta asosiy semantik guruhga ajratiladi. Birinchi guruh texnik obyektlar va qurilmalar nomlaridan iborat: *radar* (radiolokatsion aniqlash tizimi), *altimeter* (balandlik o‘lchagich), *transponder* (radiosignal qaytaruvchi qurilma), *flap* (qanotchaning orqa mexanizmi). Ikkinchi guruh harakat va jarayonlarni ifodalovchi terminlar: *takeoff* (uchish), *landing* (qo‘nish), *taxiing* (rulaj), *climbing* (ko‘tarilish). Uchinchi guruh kasbiy rollar va maqomlar: *pilot* (uchuvchi), *dispatcher* (dispetcher), *controller* (nazoratchi). Bu uch guruh bir komponentli terminlarning aviatsiya tushunchalar tizimidagi funksional differensiasiyasini ko‘rsatadi.

O‘zbek aviatsiya terminologiyasida bir komponentli terminlar ikkita asosiy yo‘l bilan shakllanadi. Birinchisi to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtirish: *radar, pilot, aerodrom, navigatsiya, aviatsiya* kabi terminlar fonetik moslashuv bilan o‘zbek tiliga kirgan. Ikkinchisi tarjima orqali shakllantirish: *landing qo‘nish, takeoff uchish yoki ko‘tarilish, taxiway rulaj yo‘lagi*. Birinchi yo‘ldagi terminlar xalqaro standartlar bilan to‘liq mos keladi; ikkinchi yo‘ldagi terminlar esa ba’zan muqobillik muammosini yuzaga keltiradi: masalan, *takeoff* uchun uchish, ko‘tarilish va parvozga ko‘tarilish variantlari parallel qo‘llanilmoqda.

[11] Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1990. – 254 p.

[12] Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi TDO‘TAU, 2019. – B. 70-71; Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 272 b;

Quyida ingliz va o‘zbek tillaridagi bir komponentli aviatsiya terminlarining qiyosiy tahlili jadval ko‘rinishida beriladi.

Jadval-2

Bir komponentli aviatsiya terminlarining ingliz o‘zbek qiyosi

Inglizcha termin	O‘zbekcha muqobil	Morfologik turi	Muvofiqlik darajasi
Radar	*Radar*	Akronim → ot	To‘liq (o‘zlashtirma)
Pilot	*Pilot*	Ot	To‘liq (o‘zlashtirma)
Runway	*pista / UQY*	Qo‘shma ot	Qisman (variantlilik)
Takeoff	*uchish / ko‘tarilish*	Fe’l+ot	Qisman (ikki variant)
Landing	*qo‘nish*	Fe’l+ot	To‘liq (tarjima)
Approach	*Yaqinlashuv*	Fe’l+ot	Qisman (semantik kenglik)
Holding	*kutish / holding*	Fe’l+ot	Muammoli (uch variant)
Taxiing	*Rulaj*	Fe’l+ot	To‘liq (o‘zlashtirma)
Squawk	*transponder kodi*	Ot	Yo‘q (ekvivalent topilmagan)
Clearance	*ruxsat / klirens*	Ot	Muammoli (ikki variant)

2-jadval tahlili bir komponentli terminlarning o‘zbek tilidagi muvofiqlik darajasi turlicha ekanini ko‘rsatadi. *Radar, pilot* kabi xalqaro terminlar to‘liq o‘zlashtirilgan bo‘lsa, *runway, clearance, holding* kabi terminlarda variantlilik muammosi mavjud. Ayniqsa *squawk* termini (transponder kodini belgilash uchun ishlatiladigan eng muhim radioaloqa buyrug‘i) o‘zbek tiliga to‘liq muqobil topilmagan.

Bobning ikkinchi bo‘limida *“Semantik jihatlar va ma’no qatlamlari: terminologik polisemiya va semantik munosabatlar”* masalalari tahlil qilingaan. Aviatsiya terminologiyasida semantik tahlil ayniqsa muhimdir. Chunki aviatsiya sohasida qo‘llanadigan terminlar oddiy nomlash vazifasinigina bajarmaydi. Ular professional muloqot jarayonida aniq buyruq berish, ogohlantirish, ma’lumot uzatish va boshqaruvni amalga oshirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Masalan, uchuvchilar va dispetcherlar o‘rtasidagi aloqa jarayonida har bir terminning ma’nosi aniq va bir xil tushunilishi zarur. Aks holda noto‘g‘ri talqin xavfsizlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu jihatdan aviatsiya terminlarining semantik aniqligi professional kommunikatsiyaning samaradorligini ta’minlaydi. Terminlarning ma’no jihatdan barqaror va tushunarli bo‘lishi axborotni tez va xatosiz qabul qilish imkonini beradi. Demak, semantik tahlil aviatsiya terminologiyasining ilmiy va amaliy xususiyatlarini chuqurroq yoritishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Clearance termini buning yorqin misolidir. Umumiy ingliz tilida *clearance* so‘zi tozalash, yo‘l ochish ma’nolarini anglatadi. Aviatsiya diskursida esa u aniq operatsional buyruq sifatida qo‘llaniladi: *take-off clearance* (uchishga ruxsat), *landing clearance* (qo‘nishga ruxsat), *clearance to enter controlled airspace* (boshqariladigan havo hududiga kirish ruxsati). Ushbu termin noto‘g‘ri talqin qilingan taqdirda parvoz jarayonida jiddiy xavfsizlik muammolari yuzaga kelishi

mumkin. Xuddi shunday, *hold* so‘zi umumiy ingliz tilida ushlab turish ma’nosini anglatsa, aviatsiya diskursida *holding pattern* (belgilangan hududda aylanma parvozni amalga oshirish) aniq protsedurali tushunchani ifodalaydi.

Aviatsiya terminologiyasida semantik munosabatlar ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki aviatsiya sohasi yuqori darajadagi aniqlik va standartlashtirishni talab qiladi. Ushbu terminologik tizimda terminlar o‘zaro ma’no jihatdan bog‘lanib, yagona professional kommunikatsiya tizimini shakllantiradi. Masalan, uchish jarayoni, navigatsiya, xavfsizlik yoki havo harakatini boshqarish bilan bog‘liq terminlar bir-biri bilan semantik jihatdan uzviy aloqada qo‘llanadi.

Shu jihatdan semantik munosabatlar aviatsiya terminologiyasining izchil, standart va xavfsiz kommunikatsiya tizimi sifatida shakllanishida muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sinonimiya (bir tushunchaning bir nechta terminologik ifodasi) aviatsiya terminologiyasida qat’iyan cheklangan, biroq butunlay yo‘q qilinmagan. Ayrim hollarda rasmiy termin (preferred term) va amaliyotda qo‘llaniluvchi variant (admitted term) bir vaqtda mavjud bo‘ladi. Masalan, *aerodrome* (rasmiy ICAO termini) va *airport* (keng qo‘llaniladigan variant) sinonim juft sifatida qaralishi mumkin, biroq ICAO hujjatlarida ularning farqi aniq belgilangan: *aerodrome* har qanday uchish-qo‘nish inshootini anglatsa, *airport* ommaviy foydalanishga mo‘ljallanganlari uchun qo‘llaniladi. O‘zbek tilida bu farq ko‘pincha saqlanmay, ikkalasi ham aeroport yoki aerodrom bilan almashtiriladi.

Antonimiya (qarama-qarshi ma’noli terminlar juftlari) aviatsiya terminologiyasida muntazam namoyon bo‘ladi: *departure* (jo‘nab ketish) *arrival* (kelish), *climb* (ko‘tarilish) *descent* (pasayish), *accelerate* (tezlashtirish) *decelerate* (sekinlashtirish), *take-off* (uchish) *landing* (qo‘nish). Bu antonim juftlar parvoz fazalarining izchil almashinuvini ifodalab, terminologik tizimning simmetrik tuzilishiga misol bo‘ladi. O‘zbek tilidagi muqobillari ko‘p hollarda to‘g‘ri tarjima qilinadi, biroq ba’zan ma’no asimmetriyasi kuzatiladi: *climb* va *ascent* ikkisi ham ko‘tarilish deb tarjima qilinsa, ular o‘rtasidagi nozik farq yo‘qoladi.

Aviatsiya terminologiyasidagi semantik munosabatlarning yana bir ko‘rinishi meronimiya (butun va uning qismlari o‘rtasidagi munosabat). Masalan, *aircraft* butun, uning qismlari: *fuselage* (gavda), *wing* (qanot), *tail* (dum), *landing gear* (qo‘nish moslamasi). *Engine* butun, uning qismlari: *compressor, combustion chamber, turbine, nozzle*. Ushbu meronimik munosabatlar texnik hujjatlar va ta’lim materiallarida terminlar tizimini qurishda muhim. O‘zbek tilidagi aviatsiya terminologiyasida meronimik tizim hali to‘liq shakllanmagan: samolyot qismlarining aksariyati yoki xalqaro akronim shaklida, yoki rus tilidan o‘zlashtirilgan nomlar bilan ifodalanadi.

Ikkinchi bobning uchinchi bo‘limi *“Xalqaro va milliy aviatsiya terminlarining lingvistik maqomi, qo‘llanish doirasi, variantlilik va o‘zaro ta’sir omillari”*ga bag‘ishlangan. Aviatsiya terminlarining lingvistik maqomini tahlil qilishda terminologik zanjir (terminological chain) tushunchasi ham foydali. Terminologik zanjir bir tushuncha asosida hosil bo‘lgan terminlar to‘plami. Masalan, *approach* asosidagi zanjir: *approach* (umumiy) → *approach procedure* (protsedura) → *approach category* (kategoriya) → *approach minima* (minimumlar) → *approach lighting* (yoritish) → *approach control* (boshqaruv). Bu zanjirning har bir a’zosi

alohida terminologik maqomga ega bo‘lib, ular birgalikda bir sohaning terminologik klasterini tashkil etadi. O‘zbek tilidagi ushbu zanjirni tahlil qilsak, ba’zi a’zolar uchun barqaror muqobil mavjud, boshqalari uchun esa hali standartlashtirilgan shakl yo‘q: *approach minima* hali ko‘pincha tarjimasiz qo‘llaniladi.

Xalqaro tadqiqotlarda aviatsiya terminlari asosan internatsional terminlar sifatida talqin qilinadi. M.T. Cabré xalqaro terminlarni turli tillarda shaklan va mazmunan yaqin bo‘lgan, global ilmiy va texnik muloqotda yagona tushunchani ifodalovchi birliklar sifatida baholaydi[13]. Aviatsiya terminologiyasida ingliz tilining yetakchi mavqei ushbu internatsionallashuv jarayonini yanada kuchaytirgan. Natijada aviatsiya terminlari ko‘plab milliy tillarda minimal moslashuv bilan qo‘llaniladi: Germaniyada ham, Yaponiyada ham, O‘zbekistonda ham *ILS, ATC, GNSS* bir xil shaklda ishlatiladi.

O‘zbek aviatsiya terminologiyasidagi variantlilikni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun radioaloqa va operatsion diskursdagi qo‘llanish chastotasiga ko‘ra eng faol 50 ta operatsional aviatsiya termini ajratib olinib, ularning o‘zbek tilidagi variantlari batafsil tahlil qilindi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki: 18 ta termin (36%) faqat bitta barqaror muqobilga ega (*pilot, radar, navigatsiya, parvoz, qo‘nish*); 22 ta termin (44%) ikkita parallel variantga ega; 10 ta termin (20%) uch va undan ko‘p variantga ega yoki umuman me’yoriy muqobilga ega emas. Bu ko‘rsatkichlar o‘zbek aviatsiya terminologiyasining sezilarli qismi standartlashtirishni talab qilishini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “Ingliz-o‘zbek aviatsiya terminologiyasining qiyosiy ekvivalentlik tahlili va integrativ takomillashtirish modeli” deb nomlanadi. Bobning birinchi bo‘limida “Strukturaviy-tipologik moslik va tafovutlar: qiyos va tahlil” masalalari yoritilgan. Terminologik tizimlarni chog‘ishtirma-lingvistik asosda o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. Bu yo‘nalish turli tillardagi terminlarning o‘zaro bog‘liqligi va farqlarini tahlil qilishga qaratilgan. Unda terminlarning tillararo mosligi, tarkibiy tuzilishi, ma’no jihatidan o‘xshash va farqli tomonlari, shuningdek, tillarning tipologik xususiyatlari terminologik tizimga qanday ta’sir qilishi o‘rganiladi. Aviatsiya terminologiyasi bu borada alohida ahamiyatga ega, chunki u xalqaro standartlashgan tizimga ega. ICAO tomonidan belgilangan me’yorlar va ingliz tilining aviatsiyada asosiy aloqa tili sifatida qo‘llanishi ushbu sohani qiyosiy tadqiqotlar uchun muhim manbaga aylantiradi. Shu sababli aviatsiya terminlari turli tillarda qanday shakllanishi, qanday moslashishi va qaysi darajada farq qilishi ilmiy jihatdan katta qiziqish uyg‘otadi hamda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot yuqoridagi yondashuvlarning uyg‘unligi asosida amalga oshiriladi. Metodologik tamoyillar quyidagicha belgilanadi: tushunchaning asosiy mazmuni saqlanishi kerak; terminning lingvistik shakli esa milliy tilning tipologik xususiyatlariga mos ravishda o‘zgarishi mumkin; kommunikativ xavfsizlik har doim ustuvor mezon bo‘lib qoladi; yangi terminlar esa moslashuv (adaptatsiya) jarayoni orqali shakllantiriladi. Ushbu to‘rt tamoyil III bobdagi tahlilning asosiy metodologik asosini tashkil etadi.

[13] Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1999. – P. 88-89

Mazkur tahlil korpusining hajmi terminologik tadqiqotlarda qo‘llaniladigan vakillik(representativlik) talablariga muvofiq belgilangan. M.T. Cabré va K. Kageura tomonidan ishlab chiqilgan metodologik yondashuvga ko‘ra, sohaviy terminologik korpus uchun 300-500 ta terminli yadro yetarli va statistik xulosalar uchun ishonchli hisoblanadi. ICAO Doc 9713 (International Civil Aviation Vocabulary) tarkibidagi taxminan 7000 terminning tahlili shuni ko‘rsatadiki, amalda faol qo‘llaniladigan sohaviy terminlar 600-800 atrofida bo‘ladi.

Tanlov stratifikatsiyalashgan usulda amalga oshirildi: 5 ta tematik blok – ATC va radioaloqa, aerodrom va parvoz, avionika, havo hududi va ATFM, hamda xavfsizlik – har biridan 100 tadan termin tanlangan.

Tanlangan terminlarning bunday taqsimoti ICAO normativ hujjatlarining tematik tuzilishiga mos keladi va korpusning ichki ishonchliligini ta’minlaydi.

Jadval-3

Ingliz va o‘zbek tilidagi aviatsiya terminlari komponent sonining qiyosi (500 termin tahlil materiali asosida)

Komponent soni	Ingliz tilida (n)	O‘zbek tilida (n)	Lingvistik xususiyat
1 komponentli	52	21	Inglizchada akronim va sodda ot ustunligi
2 komponentli	282	221	Eng tarqalgan tipologik model
3 komponentli	129	179	Tavsifiy birikmalarning kengayish zonasi
4 komponentli	31	69	O‘zbek tilida grammatik kengayishning natijasi
5+ komponentli	6	10	Ko‘p qatlamli izofali konstruksiyalar
Jami	**500**	**500**	

3-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikki til o‘rtasidagi komponent taqsimotida sezilarli farq mavjud biroq bu farq sof miqdoriy hodisa emas, balki ikki tilning fundamental tipologik tafovutining terminologik darajada izchil namoyon bo‘lishidir. Inglizchada terminlarning yarmidan ko‘prog‘ini bir va ikki komponentli birliklar tashkil etishi (jami 334 termin), o‘zbek tilida esa uch va undan ortiq komponentli birliklarning ulushi nisbatan yuqori (jami 258 termin) chog‘ishtirma-tipologik tilshunoslikning uch fundamental qoidasi bilan izohlanadi. Miqdoriy jihatdan bu farq o‘zbek terminlarining ingliz tilidagi muqobillariga nisbatan o‘rtacha 0,342 komponentga kengayishida ifodalanadi.

Jadval-4

Strukturaviy moslik turlarining taqsimoti va lingvistik mexanizmi

Moslik turi	Birliklar soni	Asosiy lingvistik mexanizm	Namuna
To‘liq moslik	322	Transliteratsion o‘zlashtirish va izomorf kalkalash	*radar → radar; airspace → havo hududi*
Qisman moslik	151	Tipologik morfo-sintaktik moslashuv	*flight deck → ekipaj kabinasi*
Transformatsiya	27	Morfologik dekompressiya va semantik diversifikatsiya	*ILS → asboblar yordamida qo‘nish tizimi*
Jami	**500**		

Strukturaviy moslik turlarining tahlil materiali bo‘yicha taqsimoti yuqorida tavsiflangan tipologik mexanizmlarning izchil aksidir. To‘liq strukturaviy moslik holatlari (322 terminlarning yarmidan ko‘pini tashkil etadi) ichki jihatdan ikki lingvistik tipga ajraladi. Birinchi tip sof transliteratsion o‘zlashtirishlar (*radar, pilot, autopilot, navigatsiya*), bu yerda ingliz tilidagi morfologik shakl o‘zbek tiliga fonetik moslashuv bilangina kiritiladi va morfologik strukturasi o‘zgarishsiz qoladi. Ikkinchi tip izomorf kalkalashlar (*airspace → havo hududi, flight plan → parvoz rejasi, emergency landing → favqulodda qo‘nish*), ularda komponent soni saqlanadi, har bir komponent o‘zbekcha muqobil bilan almashtiriladi va izofali konstruksiyaning eng oddiy modeli (*-i/-si* egalik qo‘shimchasi) ishtirok etadi. To‘liq moslikning ustun mavqei bu Wüsterning normativ identiklik konsepsiyasining bevosita tasdig‘i emas, balki ICAO standartlashtirilgan terminologiyaning leksik-konseptual yadrosining yuqori darajadagi xalqaro yagonalashuvini ko‘rsatadi[14].

Ikkinchi bo‘limda *“Terminologik ekvivalentlik va muqobillashtirish masalasi: xalqaro terminlar va milliy terminlar yaratish tamoyillari”*ga munosabat bildirilgan. Terminologik ekvivalentlik masalasi nafaqat terminologiya, balki tarjima nazariyasi doirasida ham markaziy o‘rin tutadi. Texnik va ixtisoslashgan diskursda ekvivalentlik masalasi lingvistik moslikdan ko‘ra tushunchaviy adekvatlik bilan belgilanadi. Shu bois aviatsiya terminologiyasini qiyosiy tahlil qilishda terminologiya va tarjima nazariyalarining integratsiyasi zarur. Mazkur paragrafda oltita asosiy nazariy model Wüster, Sager, Cabré, Temmerman, Nida va Pym nazariyalari sintezlanib, tahlil materialining empirik natijalari bilan qiyoslanadi.

Wüsterning normativ terminologiya modeli terminni qat’iy tushunchaviy birlik sifatida talqin qiladi[15]. Uning yondashuvida ekvivalentlik konseptual identiklik bilan belgilanadi: agar ikki til bir xil tushunchani ifodalasa, ular o‘rtasida to‘liq terminologik moslik mavjud bo‘lishi kerak. Sager terminologik ekvivalentlikni to‘liq, qisman va nol darajalarga ajratadi[16]. Uning fikricha, qisman ekvivalentlik struktur yoki semantik tafovut natijasida yuzaga keladi, biroq tushunchaviy yadro saqlanadi. Cabré terminni uch o‘lchamli birlik sifatida ko‘rsatib, ekvivalentlikni baholashda shakliy moslik emas, tushunchaviy barqarorlik asosiy mezon ekanini ta’kidlaydi[17]. Temmerman terminologik tizimlarni statik emas, balki dinamik jarayon sifatida talqin qiladi[18]. Nol ekvivalentlik ko‘pincha yangi texnologiyalar va innovatsiyalar paydo bo‘lishi bilan bog‘liq. Aviatsiya sohasidagi innovatsion terminlar (*GNSS, ADS-B, UAV, CPDLC*) nol ekvivalent segmentni izohlash imkonini beradi: bu holat terminologik inqiroz emas, balki rivojlanish bosqichidir. Nida tarjimada formal va dinamik ekvivalentlikni farqlab, texnik terminologiyada

[14] ICAO. Doc 4444: Procedures for Air Navigation Services – Air Traffic Management (PANS-ATM). – 16th ed. – Montréal: ICAO, 2016. – 466 p.
[15] Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – XIII, 145; 70 S.
[16] Sager J.C. A Practical Course in Terminology Processing. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1990. – 254 p.
[17] Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1999. – 247 p.
[18] Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2000. – 258 p.

funksional aniqlikni asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi[19]. Pym tarjimani riskni boshqarish jarayoni sifatida ko‘rib, kommunikativ xavfni minimallashtirishni tavsiya etadi, mazkur konsepsiya aviatsiya terminologiyasida transliteratsiya strategiyasini tanlashning fundamental asosiga aylanadi aviatsiya terminologiyasida bu tamoyil bevosita xavfsizlik bilan bog‘liq[20].

Ushbu oltita nazariy modelni sintezlab, mazkur tadqiqotda terminologik ekvivalentlik quyidagicha talqin qilinadi: aviatsiya terminologiyasida ekvivalentlik konseptual identiklik, lingvistik moslashuv va kommunikativ xavfsizlik o‘rtasidagi muvozanat sifatida namoyon bo‘ladi.

500 ta termin tahlil materiali bo‘yicha o‘tkazilgan ekvivalentlik tahlili quyidagi natijalarni ko‘rsatdi: terminlarning yarmidan ko‘pi to‘liq ekvivalentlik darajasiga ega, chorak qismidan ko‘proq qismi qisman ekvivalentlikni namoyon etadi, kichik bir qismi esa nol ekvivalent yoki yuqori transformatsiyaga uchragan. Mazkur natijalar aviatsiya terminologiyasida konseptual barqarorlikning yuksak ekanligi bilan birga, lingvistik realizatsiya bosqichida tizimli muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

Jadval-5

Terminologik ekvivalentlik darajalarining taqsimoti va asosiy lingvistik xususiyati (500 ta termin tahlil materiali)

Ekvivalentlik darajasi	Birliklar soni	Asosiy lingvistik xususiyat	Misollar
To‘liq ekvivalent	322	Konseptual + strukturaviy moslik	*radar, pilot, parvoz rejasi*
Qisman ekvivalent	151	Konseptual moslik + struktur adaptatsiya	*clearance, approach, holding pattern*
Nol ekvivalent	27	Konseptual moslik shubhali yoki muqobil yo‘q	*squawk, CPDLC, RNP AR*
Jami	**500**		

To‘liq ekvivalentlik segmenti (322 ta terminlarning yarmidan ko‘pini tashkil etadi) aviatsiya terminologiyasining yuqori darajada standartlashgan global tizim ekanligini tasdiqlaydi. Bu segment Wüsterning normativ identiklik konsepsiyasi bilan uyg‘unlashadi: ICAO tomonidan mustahkamlangan terminlar ko‘p hollarda milliy tillarga minimal o‘zgarish bilan kirib boradi. Lingvistik nuqtai nazardan to‘liq ekvivalent qatlamni ikki tipologik kategoriyaga ajratish mumkin: xalqaro o‘zlashtirmalar (*radar → radar, pilot → pilot, aerodrome → aerodrom, avionics → avionika*) va strukturaviy izomorf kalkalashlar (*flight plan → parvoz rejasi, landing → qo‘nish, airspace → havo hududi, control zone → boshqaruv zonasi*). Birinchi tipda fonetik moslashuv (orfografik adaptatsiya) yuz beradi, ikkinchi tipda esa har bir komponent uchun o‘zbekcha leksik muqobil tanlanadi va izofali konstruksiyaning eng oddiy modeli (*-i/-si* egalik qo‘shimchasi) qo‘llanadi.

[19] Nida E.A. Toward a Science of Translating. – Leiden: E.J. Brill, 1964. – 331 p.

[20] Pym A. Exploring Translation Theories. – London; New York: Routledge, 2010. – Ch. 6: Uncertainty. – P. 92-110.

Qisman va nol ekvivalent deb aniqlangan 178 birlik (151 + 27) doirasida muqobillashtirish strategiyalari tahlil qilindi. Strategiya tanlovi termin komponentlarining o‘zbek tilidagi mavjud leksik resurslar bilan qoplanish darajasiga qarab belgilanadi.

Jadval-6

Muqobillashtirish strategiyalarining lingvistik tahlili (178 qisman va nol ekvivalent birlik)

Strategiya	Birliklar soni	Nazariy asos	Qo‘llanish sharti
Kalkalash	111	Milliy leksik resurslardan foydalanish	O‘zbek tilida mos imkoniyat mavjud
Transliteratsiya	50	Pym: risk menejmenti	Global identiklik xavfsizlik uchun zarur
Kombinatsiyalashgan model	17	Cabré, Sager: kommunikativ adekvatlik	Ikkala usulning afzalliklari birlashtiriladi
Jami	**178**		

Kalkalash ustun strategiya sifatida o‘zbek tilining leksik va grammatik imkoniyatlarini safarbar etadi (air traffic control → havo harakati nazorati). Transliteratsiya xalqaro aniqlikni saqlash zarur bo‘lgan, ayniqsa xavfsizlik bilan bevosita bog‘liq terminlarda muqarrar bo‘lib qoladi (avtopilot, avionika, transponder). Kombinatsiyalashgan model esa konseptual aniqlik va xalqaro aloqa bir vaqtda talab etilgan holatlarda qo‘llaniladi (havo harakati boshqaruvi (ATC), asboblar yordamida qo‘nish tizimi (ILS)).

Uchinchi bobning uchinchi bo‘limi *“O‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar va amaliy takliflar”* deb nomlangan. O‘zbek tili kontekstida takomillashtirish zaruriyati to‘rt asosiy omil bilan asoslanadi. Birinchi omil xavfsizlik: terminologik variantlilik va noaniqlik real parvoz xavfsizligiga potensial tahdid tug‘diradi. Ikkinchi omil ICAO majburiyatlari: O‘zbekiston ICAO a’zosi sifatida milliy aviatsiya tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish majburiyatiga ega. Uchinchi omil ta’lim sifati: aviatsiya mutaxassislarini tayyorlashda terminologik izchillik kasbiy kompetensiya uchun zarur. To‘rtinchi omil iqtisodiy rivojlanish: O‘zbekistonning aviatsiya sohasidagi kengayishi (yangi aeroportlar, aviakompaniyalar) terminologik bazani mustahkamlashni talab qiladi.

O‘zbekiston aviatsiya sektorining rivojlanishi terminologik bazani mustahkamlash zaruriyatini yanada kuchaytirib, 2022-2025-yillarda quyidagi muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. O‘zbekiston havo yo‘llar tizimini modernizatsiyalash dasturi doirasida bir qancha yangi yo‘nalishlar ochildi va xalqaro hamkorlik kengaydi. Uzbekistan Airways parki yangilandi, yangi aviakompaniyalar (Qanot Sharq, Silk Avia) faoliyatini kengaytirdi. Samarqand, Urganch, Buxoro aeroportlariga xalqaro terminal qurildi. Ushbu rivojlanish bilan birga yangi texnik hujjatlar, ta’lim dasturlari va xalqaro audit jarayonlari zarur bo‘ldi. Bularning barchasi terminologik standartlashtirishga bo‘lgan ehtiyojni bevosita aks ettiradi.

Terminologik tizimni takomillashtirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqilgan:

Birinchi tavsiya ixtisoslashgan terminologik ekspert kengashi tashkil etish: O‘zbekiston Fuqaro aviatsiyasi agentligi qoshida terminologiya bo‘yicha ixtisoslashgan ekspert kengashi tuzilishi tavsiya etiladi. Kengash tarkibiga quyidagilar kirishi kerak: aviatsiya tilshunoslari va terminologlari (kamida 3 nafar), amaliy aviatsiya mutaxassislari uchuvchilar va dispetcherlar (kamida 2 nafar), ICAO hujjatlari bo‘yicha mutaxassis (kamida 1 nafar), terminologik ma’lumotlar bazasi boshqaruvchisi (1 nafar). Bu ko‘p tarmoqli yondashuv Cabréning ko‘p o‘lchovli termin modeli bilan mos keladi[21].

Ikkinchi tavsiya yagona elektron terminologik reyestr yaratish: barcha rasmiy aviatsiya terminlarini qamrab oluvchi, uch tilli (inglizcha, o‘zbekcha, ruscha) elektron ma’lumotlar bazasi yaratilishi zarur. Har bir yozuv quyidagi maydonlarni o‘z ichiga olishi kerak: inglizcha termin (ICAO rasmiy shakli), o‘zbekcha muqobil (*preferred term*), ruxsat etilgan variantlar (*admitted terms*), taqiqlangan shakllar (*deprecated terms*), qo‘llanish konteksti va namuna jumla, normativ manba ko‘rsatilishi. Bunday reyestr internetda ochiq manba sifatida joylashtirilsa, aviatsiya mutaxassislari, talabalar va tarjimonlar uchun qimmatli resursga aylanadi.

Uchinchi tavsiya monitoring va reviziya mexanizmi joriy etish: aviatsiya texnologiyalari tez rivojlanishi tufayli terminologik reyestrni yillik ravishda yangilab borish zarur. Yangi ICAO hujjatlarida paydo bo‘lgan terminlar avtomatik ravishda kuzatilishi va ekspert baholashidan o‘tishi kerak. Temmerman ta’kidlagan dinamiklik tamoyili aynan shu bosqichda namoyon bo‘ladi[22]: terminologik tizim tirik organizm sifatida muntazam parvarishni talab qiladi.

Taklif etilgan integrativ terminologik boshqaruv modeli mavjud nazariy modellardan quyidagi jihatlardan farqlanadi[23]. Wüster modeli qat’iy normativ identiklikni talab qiladi, biroq lingvistik adaptatsiya mexanizmini yetarlicha hisobga olmaydi. Cabré modeli lingvistik moslashuvni tan oladi, biroq institutsional boshqaruv mexanizmini batafsil ishlab chiqmaydi. ISO tamoyillari tushunchaviy aniqlikni belgilaydi, lekin milliy termin siyosatini konkret mexanizm bilan bog‘lamaydi. Taklif etilgan integrativ model esa uchala jihatni bir tizimda birlashtiradi: konseptual identiklikni saqlaydi, lingvistik moslashuvni tartibga soladi, normativ komissiya orqali institutsional mexanizmni joriy etadi, innovatsion segment uchun adaptiv jarayon ishlab chiqadi.

Taklif etilgan integrativ model 30 ta aviatsiya termini bo‘yicha oltita mezon (tushunchaviy identiklik, strukturaviy adekvatlik, grammatik moslashuv, semantik aniqlik, kommunikativ xavfsizlik, variantlilik darajasi) asosida sinovdan o‘tkazildi. Mikrotahlil natijalari quyidagicha taqsimlandi.

---

[21] Cabré M.T. Terminology: Theory, Methods and Applications. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 1999. – xii, 248 p.

[22] Temmerman R. Towards New Ways of Terminology Description: The Sociocognitive Approach. – Amsterdam; Philadelphia: John Benjamins Publishing, 2000. – xv + 258 p.

[23] Wüster E. Einführung in die allgemeine Terminologielehre und terminologische Lexikographie. – Wien; New York: Springer, 1979. – 215 S; ISO 704:2022. Terminology work – Principles and methods. – 4th ed. – Geneva: ISO, 2022. – 80 p.

Jadval-7

30 ta aviatsiya termini bo‘yicha mikrotahlil natijalari (integrativ model asosida)

Muammo turi	Terminlar soni	Ulushi	Namunaviy tavsiya
Variantlilik	18	60,0%	holding pattern → kutish trayektoriyasi
Nol ekvivalentlik	4	13,3%	fly-by-wire → sim orqali boshqaruv tizimi
Semantik siljish	3	10,0%	flight envelope → parvoz rejimlari chegarasi
Termin iqtisodining buzilishi	3	10,0%	cockpit display → kabina displeyi
Kombinatsiya zarurati	2	6,7%	ground proximity warning system → yer yaqinlik tizimi (GPWS)
Jami	**30**	**100%**	

Variantlilik toifasining ustunligi (60,0%) korpus bo‘yicha aniqlangan asosiy muammo bilan bir yo‘nalishda bo‘lib, taklif etilgan modelning empirik bazaga mosligini ko‘rsatadi. Hal qiluvchi mezonlar bo‘yicha taqsimotda variantlilik darajasi 10 ta, semantik aniqlik 6 ta, kommunikativ xavfsizlik va tushunchaviy identiklik 5 tadan, strukturaviy adekvatlik 3 ta va grammatik moslashuv 1 ta holatda yakuniy tavsiyani belgilagan.

XULOSA

Mazkur dissertatsion tadqiqot ingliz va o‘zbek tillarida aviatsiya terminologiyasining tarkibiy va semantik xususiyatlarini chog‘ishtirma-lingvistik jihatdan o‘rganishga, terminologik ekvivalentlik darajalarini empirik jihatdan aniqlashga hamda o‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishning ilmiy asoslangan integrativ modelini ishlab chiqishga qaratildi. Dissertatsiyada amalga oshirilgan nazariy, empirik va amaliy tahlillar quyidagi ilmiy xulosalarga olib keldi.

1. Terminologiya nazariyasida klassik normativ maktab (Wüster, ISO 704) va zamonaviy kommunikativ yondashuv (Cabré, Sager, Temmerman)ni birgalikda qo‘llash aviatsiya terminologiyasini o‘rganishda eng samarali usul hisoblanadi. Klassik yondashuv terminlarni standartlashtirsa, kommunikativ yondashuv ularning amaliy nutqda qo‘llanishini o‘rganadi. Aviatsiya terminlari faqat nom emas, balki tushuncha, normativ hujjat va operatsional vazifani birlashtirgan vositadir. Shu bois terminologik aniqlik, kommunikativ aniqlik va operatsional xavfsizlik o‘zaro bog‘liq jarayon sifatida qaraladi.

2. Aviatsiya terminologiyasi ilmiy-texnik taraqqiyot, xalqaro aloqa, normativ standartlashuv va tarjima jarayonlari ta’sirida shakllangan. XIX asr oxiridan hozirgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlari uni oddiy nomlash tizimidan murakkab va kodifikatsiyalashgan tizimga aylanganini ko‘rsatadi. O‘zbek aviatsiya terminologiyasida esa ikki davrli o‘zlashuv – istiqlol oldingi rus tili orqali va mustaqillikdan keyin ingliz tili orqali kirib kelish – natijasida terminlarda dubletlilik va variantlilik muammosi yuzaga kelgan.

3. ICAO va ISO normativ tizimi aviatsiya terminologiyasini xalqaro miqyosda boshqaruvchi asosiy mexanizm sifatida aniqlandi. Ushbu tizim terminlarni nafaqat

lingvistik ta’rif berish, balki ularning operatsional kontekstda majburiy qo‘llanishini belgilash orqali terminologik aniqlik va xavfsizlik o‘rtasidagi to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqlikni ta’minlaydi. ICAO hujjatlari va ISO 704 standartining qiyosiy tahlili ko‘rsatdiki, ular bir-birini to‘ldiruvchi normativ tizimni tashkil etadi: ISO 704 terminologik ishning umumiy nazariy asoslarini belgilasa, ICAO hujjatlari ushbu asosni aviatsiya xavfsizligi talablari bilan uyg‘unlashtirgan holda konkretlashtiradi.

4. Aviatsiya terminlarining tarkibiy tahlili uch asosiy modelni ko‘rsatadi: bir komponentli terminlar (barqaror va asosiy yadroni tashkil etadi), ko‘p komponentli terminlar (murakkab tushunchalarni ifodalaydi) va qisqartmalar (muloqotni ixchamlashtiradi). 500 ta termin asosidagi tahlil shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilidagi terminlar ingliz tiliga nisbatan biroz kengroq tuzilishga ega. Bu farq tilning agglyutinativ xususiyati bilan bog‘liq bo‘lib, leksik nomuvofiqlik emas, balki tabiiy lingvistik moslashuv hisoblanadi.

5. Aviatsiya terminlarining semantik tuzilishi uch qatlamdan iborat: denotativ (ma’no), funksional (vazifa) va normativ-pragmatik (qo‘llanish me’yorlari). Radioaloqada funksional va normativ qatlamlar ustun bo‘lsa, texnik hujjatlarda denotativ ma’no asosiy o‘rinda turadi. Terminlarning ko‘p ma’noliligi ICAO standartlari orqali nazorat qilinadi. Biroq o‘zbek tilida altitude, height va elevation terminlarining barchasi “balandlik” deb berilishi semantik aniqlikni kamaytiradi. Umuman olganda, sinonimiya kam, antonimiya tizimli, giperonimiya esa rivojlangan bo‘lib, terminologik tizimning ichki tartibini ifodalaydi.

6. Aviatsiya terminlarining lingvistik maqomi ularning xalqaro standartlar bilan belgilanishi va kasbiy muloqotda aniq vazifa bajarishi bilan aniqlanadi. Terminlar turli muhitlarda turlicha qo‘llanadi: normativ hujjatlarda qat’iy va barqaror, radioaloqada ixcham, ta’limda esa tushunarli shaklda ishlatiladi. O‘zbek aviatsiya terminologiyasida variantlilik muammosi keng uchraydi. 50 ta operatsional terminning 36 foizi bitta, 44 foizi ikki, 20 foizi esa uch va undan ortiq variantga ega. Masalan, *clearance*, *runway* va *holding* terminlarining bir nechta tarjima shakllari mavjud. Bu holat terminologiyani standartlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

7. 500 ta termin asosidagi tahlil ingliz va o‘zbek aviatsiya terminologiyasi o‘rtasida yuqori darajadagi strukturaviy barqarorlik borligini ko‘rsatdi. 322 ta termin to‘liq mos, 151 tasi qisman mos, 27 tasi esa transformatsiyaga uchragan. Qisman moslik holatlari morfologik kengayish, leksik tavsiflash, sintaktik qayta tuzilish va gibrid shakllar orqali izohlanadi. Bu farqlar ma’no nomuvofiqligi emas, balki til tizimlarining tabiiy lingvistik moslashuvi natijasidir.

8. Aviatsiya terminologiyasida ekvivalentlik tahlili uch darajani ko‘rsatdi: 322 ta termin to‘liq ekvivalent (xalqaro standartga mos), 151 ta termin qisman ekvivalent (til tipologiyasiga bog‘liq moslashuv), 27 ta termin esa nol ekvivalent (yangi yoki innovatsion terminlar). Qisman ekvivalent holatlar to‘rt mexanizm – morfo-sintaktik kengayish, o‘zbekcha muqobilning semantik kengayishi, terminologik differensiatsiyaning yo‘qolishi va grammatik kategoriya almashinuvi – orqali izohlanadi. Qisman va nol ekvivalent bo‘lgan 178 ta termin uchun muqobillashtirishda uch strategiya qo‘llanadi: kalkalash asosiy usul sifatida, transliteratsiya xalqaro aniqlikni saqlash uchun, kombinatsiyalashgan model esa qo‘shimcha yechim sifatida ishlatiladi.

9. O‘zbek aviatsiya terminologiyasini takomillashtirishning uch qatlamli integrativ modeli ishlab chiqildi: konseptual qatlam (ICAO/ISO 704 mezonlari asosida tushunchaviy identiklik), lingvistik qatlam (milliy til tipologiyasiga moslashuv) va normativ qatlam (variantlilikni cheklash va yagona shaklni mustahkamlash). Modelni amaliy qo‘llash uchun besh ilmiy tamoyil shakllantirildi: tushunchaviy yadro ustuvorligi, global standartga moslik, milliy til imkoniyatlaridan foydalanish, normativ barqarorlik, innovatsion segment uchun adaptiv mexanizm. Mavjud nazariy modellardan farqli o‘laroq, taklif etilgan integrativ model konseptual identiklik, lingvistik moslashuv va normativ barqarorlikni yagona tizimda birlashtiradi hamda Cabréning kommunikativ terminologiya nazariyasidan preskriptiv yo‘nalish, institutsional rasmiylashtirish va innovatsion segment uchun mustaqil adaptiv mexanizm bilan farqlanadi.

10. 30 ta termin asosida o‘tkazilgan oltita mezonli (tushunchaviy identiklik, strukturaviy adekvatlik, grammatik moslashuv, semantik aniqlik, kommunikativ xavfsizlik, variantlilik darajasi) mikrotahlil integrativ modelning amaliy qo‘llanilishini tasdiqladi va asosiy terminologik muammolarni aniqlab berdi: 18 ta termin variantlilik muammosiga ega (60,0%), 4 ta termin nol ekvivalentlik muammosiga ega (13,3%), 3 ta terminda semantik siljish kuzatiladi (10,0%), 3 ta terminda termin iqtisodi buzilgan (10,0%), 2 ta termin esa kombinatsiyalashgan yondashuvni talab etadi (6,7%). Hal qiluvchi mezonlar bo‘yicha taqsimot quyidagicha: variantlilik darajasi 10 ta holatda, semantik aniqlik 6 ta, kommunikativ xavfsizlik 5 ta, tushunchaviy identiklik 5 ta, strukturaviy adekvatlik 3 ta va grammatik moslashuv 1 ta holatda yakuniy tavsiyani belgiladi. Har bir termin uchun integrativ model mezonlari asosida preferred term tavsiya etildi: holding pattern → kutish trayektoriyasi, runway incursion → UQY’ga ruxsatsiz kirish, fly-by-wire → sim orqali boshqaruv tizimi, flight envelope → parvoz rejimlari chegarasi va boshqalar. Variantlilik toifasining ustunligi (60,0%) korpus bo‘yicha aniqlangan asosiy muammo bilan bir yo‘nalishda bo‘lib, taklif etilgan modelning empirik bazaga mosligini ko‘rsatadi.

11. Terminologik boshqaruv uchun institutsional model uch asosiy elementdan iborat: lingvistlar, aviatsiya mutaxassislari va ICAO ekspertlaridan tashkil topgan ekspert kengashi; ingliz, o‘zbek va rus tillarini qamrab olgan elektron terminologik reyestr; hamda doimiy monitoring va yangilash tizimi. Innovatsion terminlarni joriy etish besh bosqichda amalga oshiriladi: monitoring, ekspertiza, kalkalash, transliteratsiya va normativ tasdiqlash. Xalqaro tajriba (Hindiston, Avstraliya, Germaniya) aviatsiya terminologiyasini samarali boshqarishda davlat, sanoat va ilmiy hamkorlik eng muhim model ekanini ko‘rsatadi. Shu asosda O‘zbekiston uchun ham shunday hamkorlik tizimini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari nafaqat chog‘ishtirma-tipologik tilshunoslikning nazariy bazasini boyitadi, balki O‘zbekiston aviatsiya sohasining xavfsizligi, ta’lim sifati va xalqaro integratsiyasi uchun bevosita amaliy qiymat kasb etadi. Mazkur ish o‘zbek aviatsiya terminologiyasini standartlashtirish bo‘yicha kelgusi tadqiqotlar va institutsional faoliyatlar uchun mustahkam ilmiy-metodologik poydevor bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ ПРИ САМАРКАНДСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ТАШКЕНТСКИЙ МЕЖДУНАРОДНЫЙ УНИВЕРСИТЕТ КИМЁ

ТАШПУЛАТОВА САЙФУРА БАХОДИРОВНА

ИССЛЕДОВАНИЕ СТРУКТУРНЫХ И СЕМАНТИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ АВИАЦИОННОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

10.00.13 – Сравнительное и сопоставительное языкознание

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ наукам

Самарканд – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Академии наук Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/Fil6860.

Диссертация выполнена в Ташкентском международном университете Кимё.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и на информационно-образовательном портале "Ziyonet" (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Облокулова Мастура Мизробовна** доктор философии (PhD) по филологическим наукам, профессор
Официальные оппоненты:	**Насруллаева Нафиса Зафаровна** доктор филологических наук (DSc), профессор
	Каландаров Айбек Рузимбаевич доктор философии (PhD) по филологическим наукам, профессор
Ведущая организация:	**Каршинский государственный университет**

Защита диссертации состоится «11» декабря 2026 года в 12[00] часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, д. 43. Тел:(99866) 234-29-36; e–mail: info@samdchti.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за №67343). Адрес: 140117, Узбекистан, Самарканд, улица Гагарин, д. 43. Тел:(99866) 234-29-36.

Автореферат диссертации разослан «20» ноября 2026 г.
Реестр протокола рассылки №75 от «20» ноября 2026 г.

Б.А. Холиков
Председатель научного совета по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Ученый секретарь научного совета по присуждению учёной степени, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению учёной степени, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике авиационная терминология занимает особое место как одна из терминологических систем, непосредственно связанных с человеческой жизнью и безопасностью полётов. В авиационной сфере термины служат не только средством номинации определённых понятий, но и важным инструментом профессиональной коммуникации и принятия оперативных решений. В связи с этим точное, лаконичное и однозначное употребление терминов в авиационной коммуникации является одним из важных условий обеспечения безопасности полётов. Международная организация гражданской авиации уделяет особое внимание регулированию и стандартизации авиационной терминологии на международном уровне, однако перевод международно стандартизированной авиационной терминологии на национальные языки и её нормализация в национальных терминологических системах до сих пор не имеют единой методологической основы. Данное обстоятельство обусловливает необходимость системного лингвистического исследования авиационной терминологии.

В современной лингвистике изучение терминологических единиц развивается от нормативного подхода к коммуникативному, функциональному и социокогнитивному подходам, при этом на современном этапе особое внимание уделяется исследованию реального употребления терминов на основе корпусного материала. Создание специализированных языковых корпусов и развитие средств корпусного анализа позволяют выявлять термины, исследовать частотность их употребления и дистрибутивные характеристики. Вместе с тем сопоставительное исследование авиационной терминологии на материале узбекского языка, типологически отличающегося от английского и обладающего агглютинативной структурой, пока не получило достаточной системной разработки. Структурно-типологические различия английского и узбекского языков обусловливают определённые различия в структурных моделях авиационных терминов, способах словообразования, семантической структуре и степени эквивалентности. В связи с этим сопоставительно-типологическое исследование авиационных терминов английского и узбекского языков, выявление их структурно-семантических особенностей, а также определение проблем эквивалентности, возникающих при переводе, на основе эмпирического материала имеют важное научное значение.

В условиях Узбекистана исследование авиационной терминологии приобретает актуальное значение не только в теоретическом, но и в практическом отношении. Развитие гражданской авиации в стране, расширение географии международных полётов, совершенствование авиационной инфраструктуры, а также формирование национальной системы авиационного образования усиливают потребность в ведении отраслевой документации, разработке учебно-методических материалов и осуществлении профессиональной коммуникации на узбекском языке. Осуществление

Республикой Узбекистан деятельности в качестве государства члена Международной организации гражданской авиации обусловливает необходимость систематизации и нормализации узбекской авиационной терминологии наряду с использованием английского языка. Параллельное и вариативное употребление отдельных терминов в национальной авиационной терминологии свидетельствует о необходимости упорядочения отраслевой терминологии и формирования её на единой нормативной основе. В этой связи определённые в соответствующих документах задачи по «подготовке и изданию отраслевых терминологических словарей на узбекском языке …, разработке научных основ по направлениям, введению терминов в употребление, созданию узбекских эквивалентов современных терминов»[24] ещё более повышают актуальность научного исследования, систематизации и нормализации узбекских эквивалентов авиационной терминологии. Поэтому существует необходимость в выявлении структурных, семантических и функциональных особенностей авиационных терминов английского и узбекского языков, определении их эквивалентных отношений, установлении способов их передачи при переводе, а также разработке научных основ, способствующих совершенствованию национальной авиационной терминологии.

В реализации задач, определённых в Указах Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по коренному повышению роли и авторитета узбекского языка как государственного языка», от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», в Постановлении от 19 мая 2021 года № ПП-5117 «О мерах по выведению деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан на качественно новый уровень», Указе от 28 января 2022 года № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере, настоящее диссертационное исследование служит в определённой степени.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информированного общества и демократического государства и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. В мировой лингвистике широко изучены сравнительно-исторические, историко-этимологические и структурные аспекты терминологии и отраслевой лексики, проведены

[24] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 21 oktyabridagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” . https://lex.uz. (murojat sanasi: 2026-yil 10-yanvar)

системные работы в области исследования отраслевой терминологии. В частности, учёные-лингвисты мировой лингвистики S. Hubackova, I. Semradova, K. Bahadır, S. Woo; русского языкознания Г.О. Винокур, Д.С. Лотте, А.А. Реформатский, О.С. Ахманова, В.П. Даниленко, А.В. Суперанская, В.М. Лейчик, Т.Л. Канделаки, С.В. Рождественская[25] внесли достойный вклад в развитие терминологии своими научными изысканиями.

Первые научные исследования по узбекской терминологии начали создаваться с 50–60-х годов XX века. Теоретические вопросы лексики и терминологии различных отраслей, место профессионально-ремесленных единиц в лексике определённого языка изучались узбекскими учёными-лингвистами: С. Ибрагимовым, С. Усмановым, Х. Джамалхановым, Т. Нугамновым, А. Джурабаевым, Р. Дониёровым, Т. Ходжамбердиевым, Т. Турсуновой, Х. Дадабоевым, Н. Икромовой, К. Сапаевым, Х. Шамсиддиновым, А. Мадвалиевым, З. Маматкуловой, Ф. Садиновым и другими[26]. Несмотря на проведение значительных работ по отраслевой терминологии, единицы, относящиеся именно к авиации, в частности, в рамках лексики английского и узбекского языков не были исследованы в лексико-семантическом плане в сравнительном аспекте. Это указывает на актуальность темы диссертации.

---

[25] Hubackova S., Semradova I. On Acquiring New Vocabulary of a Professional Text // Procedia: Social and Behavioral Sciences. – 2012. – Vol. 47. – P. 382–386; Bahadır K. Mesleklerin Tanımlanması ve Sınıflandırılması Üzerine Bir Değerlendirme // Journal of Turkish Studies. – 2018. – Vol. 13, Issue 19. – P. 1219–1233; Woo S. Factors associated with the perception of parents and children regarding obesity-related terminology used by healthcare professionals in a sample of Korean children and adolescents with obesity // Obesity Research & Clinical Practice. – 2022. – Vol. 16, Issue 5. – P. 421–428; Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды МИФЛИ. Т. 5. Сборник статей по языковедению. – М., 1939. – С. 3–54; Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии. – М.: Изд-во АН СССР, 1961. – 158 с.; Лотте Д.С. Как работать над терминологией. Основы и методы. – М., 1968. – 344 с.; Реформатский А.А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. – М., 1968. – С. 45–57; Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – 2-е изд. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 346 с.; Даниленко В.П. Русская терминология. Опыт лингвистического описания. – М.: Наука, 1977. – 346 с.; Суперанская А.В., Подольская Н.В., Васильева Н.В. Общая терминология. Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – 246 с.; Лейчик В.М. Терминоведение: предмет, методы, структура. – 4-е изд. – М.: Либроком, 2009. – 256 с.; Канделаки Т.Л. Семантика и мотивированность терминов. – М.: Наука, 1977. – 167 с.; Рождественская С.В. Структурно-семантическая организация керамической терминологии в английском и русском языках: дис. канд. филол. наук. – Пятигорск, 2009. – 186 с.

[26] Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-ҳунар лексикаси. I жилд. – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1956. – 144 б; Усманов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – 148 б; Джамалханов Х.А. Из истории формирования и развития узбекской ботанической терминологии: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1968. – 23 с; Нугамнов Т. Термины бахчеводства в узбекском языке: Автореф. дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 54 с; Джурабаев А. Названия свадебных церемоний в узбекском языке (на материале андижанской группы говоров): Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1971. – 50 с; Дониёров Р. Ўзбек тили техник терминологиясининг айрим масалалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 148 б; Ходжамбердиев Т. Животноводческая лексика узбекского языка: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1975. – 50 с; Турсунова Т. Ўзбек тили амалий санъат лексикаси. – Тошкент: Фан, 1978. – 141 б; Дадабоев Х. Военная лексика в староузбекском языке: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1981. – 62 с; Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1983. – 148 с; Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 152 с; Шамсиддинов Х. Термины в художественной речи: дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – 148 с; Мадвалиев А. Узбекская химическая терминология и вопросы ее нормализации: Автореф. дисс.канд. филол. наук. – Ташкент, 1986. – 60 с; Mamatkulova Z. Rishton kulolchilik leksikasining lisoniy tadqiqi: Filol. fan. b-cha fals. d-ri (PhD) diss. – Farg‘ona, 2024. – 146 b; Sadinov F. O‘zbek tilida veterinariya terminologiyasi. Filol. fan. b-cha fals. d-ri (PhD) diss. – Samarqand, 2025. – 158 b.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного учреждения, в котором выполнена диссертация. Настоящее диссертационное исследование выполнено в рамках направления «Деривационные закономерности развития языка», включённого в план научно-исследовательской деятельности Ташкентского международного университета Кимё.

Цель исследования. Системный сопоставительно-типологический анализ нормативно-операционных основ, а также структурных и семантических особенностей авиационной терминологии в английском и узбекском языках, определение эмпирически обоснованных уровней терминологической эквивалентности и разработка интегративной научной модели совершенствования узбекской авиационной терминологии.

Задачи исследования:

исследовать теоретико-методологические основы авиационной терминологии, а также влияние документов ICAO и ISO на формирование и нормализацию авиационной терминологии;

провести сопоставительно-типологический анализ структурных моделей и семантических особенностей английских и узбекских авиационных терминов, выявить лингвистические механизмы, порождающие структурные различия;

определить уровни терминологической эквивалентности и их количественное распределение на материале корпуса, сформированного на основе документов ИКАО, обосновать лингвистические условия стратегий подбора эквивалентов;

разработать интегративную модель совершенствования узбекской авиационной терминологии, объединяющую концептуальный, лингвистический и нормативный уровни, и апробировать её.

Объект исследования. Система авиационных терминов в английском и узбекском языках, регулируемая нормативными документами ИКАО и терминологическими стандартами ИСО.

Предмет исследования составляет структурные и семантические особенности авиационной терминологии английского и узбекского языков.

Методы исследования. В работе использованы описательный, структурный, семантический, компонентный и дефиниционный анализы, а также сопоставительно-типологический и лингвостатистический методы, эмпирический материал сформирован методом стратифицированной выборки, а структурные показатели терминов определены на основе компонентного анализа.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

систематизированы теоретико-методологические основы авиационной терминологии, а также на основе сопоставительного анализа выявлены роль и влияние документов ICAO и ISO на формирование и нормализацию авиационной терминологии;

структурно-типологические различия английских и узбекских авиационных терминов объяснены различием аналитического и агглютинативного строя, доказано расширение узбекских терминов в среднем на 0,342 компонента, а также трёхслойность семантической структуры;

разработан способ операционализации терминологической эквивалентности через критерий соответствия компонентного состава, на корпусе из 500 единиц выделены полная, частичная и нулевая эквивалентность и доказаны лингвистические условия стратегий подбора эквивалентов;

разработана трёхуровневая интегративная модель совершенствования узбекской авиационной терминологии, состоящая из концептуального, лингвистического и нормативного уровней, эффективность которой подтверждена микроанализом 30 терминов.

Практические результаты исследования:

доказано, что собранные материалы по авиационным терминам, проблемы, выводы служат основой при создании исследований по терминологии английского и узбекского языков;

служит материалом и источником при создании толковых и орфографических словарей по авиационным терминам, разработаны методы создания словарей подобного типа;

даны рекомендации по практическому применению авиационных терминов в английском и узбекском языках на основе определённых норм.

